



## TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI OMONATLARINING O'RNI

## THE ROLE OF HOUSEHOLD DEPOSITS IN ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS

<sup>1</sup>Saidov Doniyor  
Abdullayevich

<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank ishi" kafedrasida dotsenti.  
ORCID: 0009-0007-3605-2274, G-mail: [saidovdoniyor2022@gmail.com](mailto:saidovdoniyor2022@gmail.com)

### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aholi omonatlarining strategik ahamiyati tadqiq etilgan. Tahlil davomida O'zbekiston bank tizimining 2016–2025-yillardagi statistik ma'lumotlari tahlil qilinib, aholi omonatlarining dinamik o'sishi va dedollarizatsiya darajasining ijobiy trendlari asoslab berilgan. Maqolada aholi omonatlarining bank likvidliligi va kapital adekvatligiga ta'siri baholanib, resurs bazasini diversifikatsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

*Eng.* - This article explores the strategic importance of household deposits in ensuring the financial stability of commercial banks. The study analyzes the statistical data of the banking system of Uzbekistan for the period of 2016–2025, providing evidence for the positive trends in dynamic growth and the level of dedollarization of household deposits. The article assesses the impact of household deposits on bank liquidity and capital adequacy, while developing scientific proposals and practical recommendations for strengthening financial stability through the diversification of the resource base.

### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ moliyaviy barqarorlik, aholi omonatlari, resurs bazasi, dedollarizatsiya, chakana depozitlar, likvidlilik, resurs bazasi, bank transformatsiyasi.

❖ financial stability, household deposits, resource base, dedollarization, retail deposits, liquidity, bank transformation.

### Kirish.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligi, avvalo, uning resurs bazasi tarkibi va sifati bilan belgilanadi. Tijorat banklari kreditlash, investitsiyalash va hisob-kitob xizmatlarini amalga oshirishda jalb qilingan mablag'lardan keng foydalanadi. Shu bois depozitlar, ayniqsa aholi omonatlari, bank passivlarining eng muhim va barqaror qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro amaliyotda aholi omonatlari "barqaror" resurs sifatida qaraladi. Sababi, ular yirik korporativ depozitlarga nisbatan mayda miqdorlarda, keng mijozlar bazasi bo'yicha tarqalgan va bank bilan uzoq muddatli ishonch munosabatlariga tayanadi. Rivojlanayotgan bozorlarda ichki jamg'armalarni bank tizimiga jalb qilish banklarning tashqi qarzdorlikka bog'liqligini kamaytiradi, milliy valyutada kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda makromoliyaviy barqarorlik kuchayadi.

Aholining bo'sh pul mablag'lari orqali banklar o'zining kreditlash salohiyatini kengaytiradi, moliyaviy xavf-xatarlarni diversifikatsiya qiladi va milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini oshiradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan bozorlarda jami passivlar tarkibida ichki resurslar ulushining ortishi bank sektorining tashqi konyunktura shoklariga va xorijiy qarzdorlikka bo'lgan tobeligini keskin kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmonida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Xususan, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish vazifasi qo'yilgan [1].

Ushbu vazifalar bank resurslarining nafaqat umumiy hajmini ko'paytirish, balki ularning tarkibiy sifati va barqarorligini ta'minlash zaruratini ham kuchaytiradi. Shu bois bank resurslarini barqaror manbalar hisobidan shakllantirish, depozit bazasini kengaytirish, likvidlilikni ta'minlash va moliyaviy tavakkalchiliklarni samarali boshqarish tijorat banklari moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Depozit bazasining hajmiga bir qator institutsional omillar, jumladan, omonatlarni kafolatlash tizimining samaradorligi, mahsulotlarning foiz stavkasi jozibadorligi hamda moliyaviy xizmatlarning raqamli inkluzivligi bevosita ta'sir ko'rsatadi.

### ***Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.***

Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda, avvalo, aktiv va passivlarni boshqarish, likvidlilik riskini kamaytirish, resurs bazasini diversifikatsiyalash hamda depozitlar barqarorligini ta'minlash yo'nalishlarida tadqiq etiladi. J.M. Keynes jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi bog'liqlikni samarali talab, iste'molga moyillik va investitsiya hajmi orqali

izohlab, iqtisodiy faollikning shakllanishida investitsiya jarayoni muhim o'rin tutishini asoslaydi. Uning fikricha, iste'molga moyillik va investitsiya hajmi bandlik hamda ishlab chiqarish darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi [2].

F. Mishkin bank tizimi barqarorligini baholashda depozitlarning konsentratsiya darajasi va ularning chiqib ketish ehtimolligini hisobga olish zarurligini asoslab bergan. Uning fikricha, aholi omonatlarining diversifikatsiya qilinganligi bankni tizimli likvidlilik shoklaridan himoya qiladi [3].

MDH olimlari orasida G.S. Panova banklarning aholi bilan ishlash faoliyatini, xususan, jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini maxsus tadqiq etgan. Uning "Банковское обслуживание частных лиц" nomli asarida chakana bank xizmatlari, aholi mablag'larini jalb qilish va xususiy mijozlar bilan ishlash masalalari yoritilgan [4].

G.G. Korobova depozit operatsiyalarini tijorat banklari resurs bazasini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, depozit operatsiyalari yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh pul mablag'larini ma'lum muddatga yoki talab qilib olinguncha bankka jalb qilish jarayonidir. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, aholi omonatlari bank passivlarining barqaror qismini shakllantirishi, kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishi va likvidlilikni ta'minlash orqali tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi [5].

O'zbekistonlik olimlardan Sh.Z. Abdullayeva tijorat banklari faoliyatida likvidlilik, to'lovga layoqatlilik, aktiv va passivlarni boshqarish hamda resurs bazasi barqarorligini moliyaviy barqarorlikning asosiy omillari sifatida baholaydi. Muallifning fikricha, bank mustahkamligi ko'p jihatdan resurs bazasining barqarorligi va depozitlar salmog'i bilan belgilanadi [6].

T. Qoraliyev va boshqalar tijorat banklari faoliyatini aktiv va passiv operatsiyalar

uyg'unligida tahlil qilib, bank resurs bazasini shakllantirishda jalb qilingan mablag'larning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadilar. Mualliflar yondashuviga ko'ra, tijorat banklarining passiv operatsiyalari bank faoliyatini moliyalashtirish, kreditlash resurslarini shakllantirish va likvidlilikni ta'minlashning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi [7].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mavzu doirasida ilmiy tadqiqot olib borishda taqqoslama tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy taqqoslash, nazariy va amaliy tahlil kabi tadqiqot uslublaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ularning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishi, yetarli likvid mablag'larga ega bo'lishi, aktiv va passivlar mutanosibligini saqlashi hamda moliyaviy shoklarga bardosh bera olishi bilan belgilanadi. Ushbu jarayonda aholi omonatlari banklar uchun eng muhim va nisbatan barqaror resurs manbalaridan biri hisoblanadi. Chunki aholi omonatlari bank passivlarining diversifikatsiyalangan qismini shakllantiradi, kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi va banklarning tashqi qarz manbalariga qaramligini kamaytiradi.

Aholi omonatlari bilan bank moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik, avvalo, likvidlilik orqali namoyon bo'ladi. Banklar jalb qilingan omonatlar hisobidan mijozlar talabini qondirish, kreditlar ajratish va joriy to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar bankning depozit bazasi barqaror bo'lsa, uning qisqa muddatli likvidlilik riski pasayadi. Bazel III standartlarida ham chakana depozitlar, ya'ni jismoniy shaxslar omonatlari, LCR hisob-kitobida "stable" va "less stable" depozitlarga ajratiladi; to'liq kafolatlangan va bank bilan barqaror munosabatga ega omonatlar pastroq chiqib ketish koeffitsiyenti bilan baholanadi.

Shu bilan birga, aholi omonatlari banklarning resurs bazasini mustahkamlaydi. Omonatlar hajmining ortishi banklarga iqtisodiyotning real sektori va aholi ehtiyojlari uchun kreditlar ajratish imkonini oshiradi. Bu bog'liqlik O'zbekiston bank tizimida ham kuzatiladi: maqola uchun tayyorlangan ma'lumotlarda 2016-yilda aholi omonatlari 8,5 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 169,1 trln so'mga yetgani ko'rsatilgan. Shu bilan birga, aholi umumiy daromadlarining bank omonatlariga jalb qilinishi 2016-yildagi 4,3 foizdan 2025-yilda 14,9 foizgacha oshgan.

Aholi mablag'larining milliy va xorijiy valyutadagi tarkibiy o'zgarishlari banklarning valyuta tavakkalchiligini baholashda muhim indikator hisoblanadi (1-jadval).

### **1-jadval**

**Tijorat banklarida aholi omonatlarining tarkibiy dinamikasi (mlrd. so'm, 31-dekabr holatiga) [8]**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Aholi omonatlari</b>	<b>Milliy valyutada (jami)</b>	<b>% da</b>	<b>Xorijiy valyutada (jami)</b>	<b>% da</b>
<b>2016-yil</b>	8 531	6 523	76,5	2 008	23,5
<b>2017-yil</b>	12 132	6 442	53,1	5 690	46,9
<b>2018-yil</b>	14 704	8 901	60,5	5 804	39,5
<b>2019-yil</b>	21 052	12 919	61,4	8 133	38,6
<b>2020-yil</b>	27 404	17 019	62,1	10 385	37,9
<b>2021-yil</b>	37 306	24 797	66,5	12 509	33,5
<b>2022-yil</b>	68 689	45 170	65,7	23 579	34,3
<b>2023-yil</b>	92 793	63 561	68,5	29 142	31,5
<b>2024-yil</b>	129 812,3	95 621,9	73,7	34 190,4	26,3
<b>2025-yil</b>	169 130,6	132 806,0	78,5	36 324,6	21,5

O'zbekiston tijorat banklaridagi aholi omonatlarining 2016–2025-yillardagi dinamikasi yuqoridagi jadvalda keltirilgan bo'lib, aholi omonatlarining jami hajmi 2016-yildagi 8,5 trln so'mdan 2025-yilga kelib 169,1 trln so'mga yetgan. Bu 10 yil ichida qariyb 20 barobar o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Mazkur holat bank tizimiga bo'lgan ishonchning ortishi va foiz stavkalarining jozibadorligi bilan izohlanadi.

Chet el valyutasidagi omonatlar ulushi valyuta sohasidagi o'zgarishlar natijasida 2017-yilda keskin ko'tarilib, 46,9 foizga yetgan. 2018-yildan boshlab esa milliy valyutadagi

omonatlar ulushi muntazam o'sib borib, 2025-yilda rekord daraja – 78,5 foizni tashkil etgan.

Xorijiy valyutadagi omonatlar ulushining 2017-yildagi 46,9 foizdan 2025-yilda 21,5 foizgacha pasayishi bank tizimi uchun ikki tomonlama ijobiy omil hisoblanadi:

- ❖ Likvidlilik riski: banklarning tashqi valyuta shoklariga nisbatan chidamliligi oshgan.

- ❖ Valyuta riski: passivlarning milliy valyutada shakllanishi banklarga valyuta riskisiz kreditlash imkonini beradi.

**2-jadval**

**Aholi umumiy daromadlarining bank omonatlariga jalb qilinishi, foizda [9]**

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Aholi umumiy daromadlari, mlrd. so'm	197,96	257,36	322,95	391,39	441,20	550,75	667,42	779,09	954,25	1 134,25
Aholi omonatlari, mlrd. so'm	8 531	12 132	14 704	21 052	27 404	37 306	68 689	92 793	129,81	169,13
Aholi umumiy daromadlarining bank omonatlariga jalb qilinishi, foizda	4,3	4,7	4,5	5,4	6,2	6,7	10,3	11,9	13,6	14,9

Yuqoridagi jadval tahlillari shuni ko'rsatadiki, 2016-yilda fuqarolar o'z daromadlarining bor-yo'g'i 4,3 foiz qismini bankka yo'naltirgan bo'lsa, 2025-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 14,9 foizga yetgan. Ushbu davr mobaynida aholi umumiy daromadlari 5,7 barobarga oshgan bir paytda, omonatlarning 19,8 barobarga o'sishi "yashirin" (yostiq ostidagi) mablag'larning faol ravishda rasmiy bank aylanmasiga jalb qilinayotganini tasdiqlaydi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida aholi omonatlari tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, rivojlangan bank tizimiga ega mamlakatlarda aholi jamg'armalarini bank depozitlariga jalb qilish, ularni kafolatlash va uzoq muddatli resurs sifatida bank aylanmasiga yo'naltirish moliyaviy barqarorlik siyosatining muhim qismi hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda bu ko'rsatkich 100 foizdan yuqori bo'lib, masalan, Germaniyada 114 foiz, Rossiyada jami aholi depozitlari yillik aholi daromadlarining qariyb 57,8 foiziga teng. Qozog'istonda aholi omonatlarining aholi umumiy daromadlariga nisbati 46,7 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich aholi jamg'armalarining bank tizimiga jalb qilinishi O'zbekistonga nisbatan yuqoriroq ekanini va banklar resurs bazasini shakllantirishda chakana depozitlarning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda bank depozitlarining barqarorligi, avvalo, omonatlarni kafolatlash tizimi orqali ta'minlanadi. Masalan, AQShda Federal depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasi – FDIC tomonidan omonatlar har bir omonatchi, har bir sug'urtalangan bank va mulkchilik toifasi bo'yicha kamida 250 ming AQSh dollarigacha kafolatlanadi. Bu mexanizm aholining bank tizimiga ishonchini oshiradi va

banklardan omonatlarning ommaviy chiqib ketishi xavfini kamaytiradi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ham omonatlarni kafolatlash bank tizimi barqarorligining muhim elementi hisoblanadi. Yevropa Komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, Yilda omonatlarni kafolatlash sxemalari har bir omonatchi va har bir kredit tashkiloti bo'yicha 100 ming yevrogacha himoyani ta'minlaydi. Bunday yagona kafolat mexanizmi aholi omonatlarini bank tizimida saqlash, moliyaviy ishonchni kuchaytirish va inqiroz holatlarida banklardan mablag'larning keskin chiqib ketishini cheklashga xizmat qiladi.

Yaponiya tajribasida ham aholi omonatlarini himoya qilish tizimi bank barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Yaponiyada depozitlarni sug'urtalash tizimi orqali muddatli depozitlar va boshqa ayrim omonatlar bo'yicha asosiy summa 10 mln iyenagacha va tegishli foizlar himoya qilinadi; foizsiz hisobvaraqlar esa belgilangan shartlar asosida to'liq himoya qilinishi mumkin. Bu aholi mablag'larini bank tizimida saqlash va banklarga nisbatan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2025-yil 18-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun so'nggi yillarda mamlakatimizda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, bank tizimida biznes yuritish uchun raqobat muhitini, shuningdek, xalqaro standartlarga mos keluvchi huquqiy asosni yaratish bo'yicha tizimli ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Kafolatlangan omonat miqdori 200 million so'mni tashkil etishi bankka undan ko'p pul qo'yish mumkin emasligini anglatmaydi. Aksincha, har bir bankda shu miqdorgacha qo'yilgan omonatlar davlat tomonidan kafolatlanadi. Bu esa aholi uchun ijobiy bo'lib, omonatlarning diversifikatsiya qilinishi orqali risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

### ***Xulosa va takliflar.***

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aholi omonatlari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy resurs manbalaridan biri hisoblanadi. Chunki aholi omonatlari bank passivlarining nisbatan barqaror qismini shakllantiradi, kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi, likvidlikni ta'minlaydi hamda banklarning tashqi moliyalashtirish manbalariga qaramligini kamaytiradi.

Milliy valyutada shakllangan depozitlar banklar uchun valyuta riskini kamaytiradi, aktiv va passivlar o'rtasidagi valyutaviy nomutanosiblikni pasaytiradi hamda ichki resurslar hisobidan kreditlash imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, aholi daromadlarining bank omonatlariga jalb qilinishi 2025-yilda 14,9 foizni tashkil etgani ushbu yo'nalishda hali katta foydalanilmagan salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. Demak, tijorat banklari aholi mablag'larini bank tizimiga yanada kengroq jalb qilish, omonat mahsulotlarining jozibadorligini oshirish va uzoq muddatli depozitlarni rivojlantirish orqali o'z moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashi mumkin.

Tijorat banklariga aholi omonatlarini jalb qilishni kengaytirish bo'yicha tadqiqot natijasi quyidagi xulosalarni shakllantirish, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi:

1. Aholi omonatlarining bank resurs bazasidagi ulushini oshirish lozim. Buning uchun tijorat banklari aholi daromadlari, yosh guruhlari, hududiy xususiyatlar va moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqib, turli muddat va shartlarga ega depozit mahsulotlarini kengaytirishi maqsadga muvofiq;

2. Milliy valyutadagi omonatlarni rag'batlantirish zarur. Milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha raqobatbardosh foiz stavkalarini taklif etish, inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda jamg'arma mahsulotlarini ishlab chiqish va uzoq muddatli so'mdagi

omonatlarga qo'shimcha imtiyozlar berish banklarning valyuta riskini kamaytirishga xizmat qiladi;

3. Uzoq muddatli depozit mahsulotlarini rivojlantirish kerak. Banklar uchun 1 yil va undan ortiq muddatli aholi omonatlari barqaror resurs manbai hisoblanadi;

4. Raqamli depozit xizmatlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq. Mobil ilova orqali depozit ochish, to'ldirish, muddatini uzaytirish va foiz daromadini kuzatish imkoniyatlarini soddalashtirish aholi

omonatlarini jalb qilishni kuchaytiradi. Ayniqsa, yoshlar, migrantlar va masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar uchun raqamli omonat mahsulotlari muhim ahamiyatga ega;

5. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish lozim. Omonat, foiz stavkasi, inflyatsiya, real daromad, kafolat va risk tushunchalarini aholiga sodda shaklda tushuntirish bank depozitlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni.
2. Keynes J.M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. - London: Macmillan, 1936. - 21-23, 59-64-p.p.
3. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 12th ed. - New York: Pearson, 2019. - 188-216, 217-235- p.p.
4. Панова Г.С. *Банковское обслуживание частных лиц*. - Москва: ДИС, 1994. - 352 с.
5. Коробова Г.Г. *Банковское дело*. - Москва: Экономистъ, 2003. - 209, 213 с.
6. Abdullayeva Sh.Z. *Bank ishi. Darslik*. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. - 732 b.
7. Azizov U., Qoraliyev T. va boshqalar. *Bank ishi. Darslik*. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2016. 640 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining *Statistik byulleteni ma'lumotlari (2016–2025-yillar)*. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti: <https://cbu.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb sahifasi ma'lumotlari: <https://stat.uz/>